



ADOLAT VA ILM YO'LIDA TUTASHGAN UMR – XADICHA SULAYMONOVA

Suyunova Lobar shuhratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19344327>

ARTICLE INFO

Received: 21st March 2026

Accepted: 25th March 2026

Published: 30th March 2026

KEYWORDS

huquq tizimi, huquq sohasi, dotsent, rektor, islohot, ilmiy meros.

ABSTRACT

Ushbu maqola ilk huquqshunos ayol Xadicha Sulaymonovanning ilmiy merosini o'rganish va tadqiq qilish maqsadida yozilgan. Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonovanning yoshlik yillari, ilmiy merosi, huquq sohasiga kirib kelishi, urush yillaridagi fidokorona mehnatlari batafsil yoritiladi. Shuningdek Xadicha Sulaymonovanning Yuridik komissiya raisi va Oliy Sud Raisi sifatidagi islohotlari, Toshkent yuridik institutidagi rektorlik va dotsentlik faoliyati, O'zbekiston SSR huquq tizimining shakllanishidagi yuksak o'rni tahlil qilinadi.

Tarixda shunday shaxslar borki, ularning hayoti, orzulari uchun harakatlari va mehnati butun bir davrning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Mana shunday siymolardan biri XX asr o'zbek huquqshunosligi tarixida o'chmas iz qoldirgan, o'z davrining jasoratli va bilimdon ayollaridan biri — Xadicha Sulaymonovadir. U nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda huquqshunos ayollar orasida ilmiy faoliyati, huquqiy tafakkuri va jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi bilan ajralib turadi. Uning hayot yo'li o'zbek ayollarining ilm-fan, huquq va siyosat sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirgan, inson huquqlari, xususan, ayollar huquqlarini himoya qilish yo'lida katta maktab yaratgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonovanning huquqshunoslik sohasidagi ilmiy va kasbiy faoliyati tahlil qilinib, uning hozirgi kun huquqshunoslari uchun ibrat namunasi bo'la oladigan bir qator ishlari yoritiladi.

Ilm sari tashlangan ilk qadamlar

Xadicha Sulaymonovanning hayotida yangi davr boshlanayotgan bir pallada, maktab davrini tamomlagach, 1931-yilda u Toshkentga yo'l oldi. Bu davr O'zbekiston tarixida ham, ayniqsa, ayollar hayotida ham oson kechmagan, sinovlarga boy yillar edi. Lekin Xadicha Sulaymonova o'z kelajagiga, ilmning kuchiga va orzularining yorqin bo'lishiga ishongan edi. U Jahon Obidova nomidagi Toshkent sovet qurilishi va huquq institutining yuridik fakultetiga o'qishga kirib, kirib, hayotida yangi bosqichni boshladi. Talabalik yillarida u o'zining tirishqoqligi, mustahkam irodasi va izlanishga bo'lgan cheksiz qiziqishi bilan ajralib turardi. Darslarda faol ishtirok etar, murakkab huquqiy masalalarni sinchkovlik bilan o'rganar, munozaralarda dadil fikr bildirar edi. Ustozlarining ishonchi va talabalar orasidagi hurmat uni yanada kuchliroq bo'lishga undadi. 1935-yilda institutni muvaffaqiyatli tugatgach, Xadicha Sulaymonova ilmiy izlanishlar sari dadil qadam tashladi. Uch yil o'tib, 1938-yilda, u Moskvadagi Yuridik institutda aspiranturada o'qishni boshladi. Bu nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki o'zbek ayollari uchun katta tarixiy bosqich bo'ldi deb ayta olamiz. Ushbu oliygohning Sovet jinoyat huquqi kafedrasida olib borgan tadqiqotlar unga nafaqat huquqiy nazariyalarni chuqur o'rganish

imkonini berdi, balki siyosiy-huquqiy jarayonlarga o'ziga xos, yangicha – ayol nigohi bilan qarashni ham o'rgatdi. Bu davr uning ilmiy uslubini shakllantirdi, mustaqil fikrlashga o'rgatdi va keyinchalik butun huquqshunoslik sohasidagi faoliyatiga mustahkam poydevor yaratdi.

Urush yillari: ilmiy faoliyatda haqiqiy ibrat namunasi 1941-yilga kelib, Xadicha Sulaymonova o'zining yirik ilmiy loyihalaridan birini boshlab yuborgan edi. U "Harbiy intervensiya va fuqarolar urushi davrida O'zbekistanning jinoyat qonunlari" mavzusida tadqiqot olib borishga kirishdi. Bu mavzuni tanlash bejiz emasdi — olim O'zbekiston huquqiy tizimining shakllanish jarayonini, sovet va mahalliy qonunchilikning o'zaro bog'liqligini, huquqiy normalarni qo'llashdagi murakkabliklarni chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan edi. Ammo oradan ko'p o'tmay, Ikkinchi jahon urushi boshlanib, butun hayotni o'zgartirib yubordi. Urush nafaqat mamlakat taraqqiyoti, balki ilm-fan rivojiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli Xadicha Sulaymonovaning Moskvadagi aspiranturada olib borayotgan izlanishlari vaqtincha to'xtab qoldi. U Toshkentga qaytib, Toshkent yuridik institutiga ishga yuborildi. 1941–1945-yillar mobaynida u dastlab assistent, keyinchalik esa dotsent vazifasini bajardi. Urushning og'ir sharoitiga qaramay, Xadicha talabalarga dars berish, ta'lim jarayonini tashkil etish, yangi sharoitga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish bilan shug'ullandi. Bir vaqtning o'zida u ilmiy izlanishlarni ham to'xtatmadi — maqolalar yozdi, tadqiqot ishlarini davom ettirdi va dissertatsiyasi ustida ham izchil ishladi. Bu davr Xadicha Sulaymonova uchun haqiqiy sinov bo'ldi. Bir tomondan, urush yillaridagi qiyinchiliklar va resurs yetishmovchiligi, ikkinchi tomondan esa ilm-fan, ta'lim va jamoatchilik faoliyatini birgalikda olib borish – bularning barchasi ulkan matonat, sabr va kuchli irodani talab qilardi. Urush yillaridagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, front ortidagi hayot, yangi huquqiy tartibotlarning shakllanishi olimaning qarashlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Xadicha nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirishni o'rgandi, real hayotdagi huquqiy muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu yillar nafaqat Xadicha Sulaymonovani yetuk olim sifatida shakllantirdi, balki uni tajribali pedagog, kuchli tashkilotchi va jamoatchilik arbobi sifatida ham tanitdi. Og'ir sharoitlarda ham ilmga, adolatga, va kelajak avlod tarbiyasiga sodiqlik ko'rsatgan bu ayolning jasorati o'z davri uchun haqiqiy ibrat bo'ldi.

Ilmiy yuksalish va huquqshunoslikdagi tarixiy burilish

1945-yil Xadicha Sulaymonova hayotida yangi davrni boshlab berdi. Urushning tugashi bilan ilm-fan sohasida ham katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Shu yili u SSSR Adliya komissarligi qoshidagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida o'zining ilmiy ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, huquqshunoslik fanlari nomzodi darajasini qo'lga kiritdi. Bu nafaqat shaxsiy yutuq, balki O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi uchun katta voqea edi, chunki Xadicha Sulaymonova bu darajaga erishgan birinchi o'zbek ayoli sifatida tarixda o'z o'rnini egalladi. Nomzodlik darajasini olganidan so'ng Xadicha Sulaymonova Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasiga rahbar etib tayinlandi. Bu lavozim unga katta mas'uliyat yukladi: kafedra faoliyatini yangilash, zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqish kabi vazifalar uning oldida turardi. U yosh kadrlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, yuridik terminologiyani boyitish va eng muhimi, o'zbek tilida darsliklar yaratish ishiga katta e'tibor qaratdi. Aynan uning tashabbuslari tufayli jinoyat huquqi bo'yicha ilk o'zbekcha o'quv qo'llanmalar paydo bo'ldi. 1948–1950-yillarda Sulaymonova O'zbekiston SSSR Fanlar akademiyasining Yuridik institutida doktorant sifatida faoliyat yuritdi. Shu davrda u O'zbekiston huquq tizimi shakllanishiga oid qimmatli tadqiqotlar olib bordi va ikki muhim ilmiy maqolani chop ettirdi: "O'zbekistonda sovet jinoyat huquqining vujudga kelishi"; "O'zbekiston SSRda sovet sudlarining tashkil topish tarixi". Bu maqolalar nafaqat huquqshunoslik nazariyasiga, balki tarixiy-huquqiy manbalar rivojiga ham katta hissa qo'shdi deb aytish mumkin. 1950-yil oxiriga kelib, Xadicha Sulaymonova "O'zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo'lishi va rivojlanishi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya

qilish ishlarini boshladi va 1952-yilda professor unvoniga sazovor bo'ldi. Shu tariqa u nafaqat ilmiy darajaga erishgan birinchi o'zbek ayoli, balki milliy huquqshunoslik maktabining poydevorini yaratgan olimlardan biriga aylandi. Bu davr Sulaymonovanning faoliyati uchun burilish nuqtasi bo'ldi: u ilmiy izlanishlar, dars berish va milliy huquqiy adabiyotlarni shakllantirish sohalarida o'ziga xos maktab yaratdi. O'zbek Femidasi adolat, qonun ustuvorligi va fidoyilik yo'lida O'zbekiston huquq tizimi tarixida Xadicha Sulaymonova nomi o'ziga xos o'chmas iz qoldirgan. Uning yuridik sohadagi faoliyati nafaqat bir olimaning, balki bir butun avlodning huquqiy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. U nafaqat ilmiy izlanishlari, balki davlat boshqaruvi, sud islohotlari va adliya tizimidagi tub o'zgarishlari bilan ham yurt tarixiga kirgan.

Adliya vazirlidagi islohotlar: tizimdagi yangi nafas

1956-yilda Xadicha Sulaymonova O'zbekiston SSR Adliya vaziri etib tayinlandi. Bu lavozimda u Respublikaning adliya tizimini yangilash va mustahkamlash yo'lida katta o'zgarishlarga bosh-qosh bo'ldi. U sud tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish, adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni bosh maqsad qilib oldi. Xadicha Sulaymonova shunchaki kabinetdan boshqaruvchi emas edi – u sud amaliyotidagi real muammolarni chuqur o'rganish uchun o'zi Qoraqalpog'iston, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Andijon kabi viloyatlarga borib, tekshiruv guruhlariga shaxsan rahbarlik qildi. Uning **“Har qanday tekshiruv sudyalarning xato va kamchiliklarini tuzatishga xizmat qilishi kerak”** :degan so'zlari o'sha davr Adliya tizimining asosiy tamoyiliga aylandi. Uning tashabbusi bilan 1958-yilda Toshkentda sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Bu institut kriminalistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, jinoyatlarni aniqlash va huquqiy muammolarni samarali hal qilishda katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda ham mazkur muassasa faxr bilan Xadicha Sulaymonova nomi bilan yuritiladi.

Yuridik komissiya raisi sifatida qonun ijodkori. Adliya vaziri lavozimidan so'ng, Xadicha Sulaymonova 1959-yilda O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti huzuridagi Yuridik komissiya raisi etib tayinlandi. Bu davrda u jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik va fuqarolik-protsessual kodekslarning yangi loyihalarini ishlab chiqish ishlariga bevosita rahbarlik qildi. Sulaymonovanning faoliyati tufayli o'sha yillarda O'zbekiston SSRda huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ko'plab qonunlar qabul qilindi. Uning huquqiy tafakkuri, qonunlarni xalq manfaatiga moslashtirishga qaratilgan yondashuvi va amaliy tajribasi O'zbekiston yurispudensiyasi tarixida mustahkam o'rin egalladi.

Xadicha Sulaymonova – Oliy Sud Raisi

Xadicha Sulaymonovanning yuridik faoliyatidagi eng yuksak cho'qqisi – 1964 yilda O'zbekiston SSR Oliy Sudi Raisi etib tayinlanishi bo'ldi. Bu lavozimda u umrining oxirigacha ishladi va sud tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirdi. U qonun ustuvorligi, insonparvarlik va adolat tamoyillariga qat'iy sodiq edi. Sulaymonova sud qarorlarining shaffof, asosli va adolatli bo'lishi uchun qat'iy kurashdi. Og'ir jinoyatlar bo'yicha qat'iy choralar ko'rgan bo'lsa-da, o'z aybiga iqror bo'lgan, pushaymon bo'lgan insonlarga imkon berishni ham qo'llab-quvvatlardi. Samarqandlik bir qariya bilan bog'liq mashhur voqea uning insonparvarlikka asoslangan yondashuvini yaqqol ko'rsatadi: o'g'li avariya sabab qamalgan haydovchining ishini shaxsan ko'rib chiqib, uning oilaviy ahvolini inobatga olib, hukmni yengillashtirishga qaror qilgan edi. U shuningdek, Oliy sud tarkibida qonunchilikni kodifikatsiyalash, sud amaliyotini umumlashtirish va fuqarolik shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Bu islohotlar sud tizimi samaradorligini oshirdi va fuqarolarning huquqlarini yanada kuchliroq himoya qilish imkonini berdi.

Bir ayol – butun bir tarix

Bu ibora Xadicha Sulaymonovaning hayot yo'lini ifodalash uchun ayni haqiqatdir. U o'z davrida imkoniyatlar cheklangan, ayollar ovozi eshitilmagan bir paytda ilm yo'lini tanlab, huquqshunoslik olamida o'z izini qoldira olgan. U har bir qarorida, har bir islohotida, har bir kitobida adolatga, inson huquqlariga va tenglik g'oyalariga sodiq bo'lib yashadi. Sulaymonovaning hayoti jasorat va yuksak oliyjanoblik ramzidir. U nafaqat birinchi o'zbek huquqshunos ayoli sifatida ilmiy darajaga erishdi, balki Adliya vaziri, Oliy Sud Raisi sifatida mamlakat huquq tizimini takomillashtirdi, qonun ustuvorligini mustahkamladi va insonparvarlik tamoyillarini yuksak darajaga olib chiqdi. Uning sa'y-harakatlari tufayli jinoyat huquqi rivojlandi, adolatli sudlov tizimi shakllandi, ayollarning ilm va kasbdagi o'rni kengaydi. Bugun Xadicha Sulaymonovaning nomi – bu huquqiy islohotlar, bilimga intilish va inson huquqlarini himoya qilish yo'lida yorqin ilhom manbayidir. Uning hayoti – butun bir tarix. Xadicha Sulaymonova qoldirgan meros – bu adolatga ishonch, huquqqa sadoqat va kelajak avlodlarga ilhom baxsh etuvchi abadiy nurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uch mashxur o'zbek ayoli -T.:2022. 19-22 b
2. [Xadicha Sulaymonova hayoti haqida qisqacha. – TSUL – Library](#)
3. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos olim, davlat arbobi. M.Hakimov, G'.Axmedov, A.Saidov. – T.: O'zbekiston 1993 – 15 b

INNOVATIVE
ACADEMY